



UDK: 37.013 (575.1)

Hurliman KAIPBERGENOVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: h.kaipbergenova@gamil.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, PhD D.Sayitxanova taqrizi asosida

THE ROLE AND IMPORTANCE OF RECONCEPTUALIZATION IN UZBEKISTAN'S EDUCATION SYSTEM

Annotation

This article explores the theoretical foundations of reconceptualization in the education system, its manifestations in Uzbekistan, and its representation in international practices. The study analyzes the renewal of curricula, the redefinition of the teacher's role, the transformation of teaching methodologies, and the reform of assessment systems as key aspects of the reconceptualization process. Furthermore, Uzbekistan's experience is compared with practices in Finland, Singapore, and the United States, and recommendations are proposed based on national educational contexts.

Keywords: reconceptualization, education system, curriculum, innovative methodology, assessment, international experience

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ РЕКОНЦЕПТУАЛИЗАЦИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические основы реконцептуализации в системе образования, ее проявление в Узбекистане, а также отражение в международной практике. В рамках исследования анализируются обновление учебных программ, изменение роли преподавателя, трансформация методов преподавания и систем оценки как основные направления процесса реконцептуализации. Кроме того, опыт Узбекистана сопоставляется с практикой Финляндии, Сингапура и США, предложены рекомендации с учетом национальных особенностей.

Ключевые слова: реконцептуализация, система образования, учебная программа, инновационные методы, оценивание, международный опыт.

REKONSEPTUALIZATSIYANING O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada rekonseptualizatsiya tushunchasining ta'lim tizimidagi nazariy asoslari, uning O'zbekiston ta'lim sohasida qanday tarzda namoyon bo'layotgani hamda xalqaro tajribalardagi ifodasi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o'quv dasturlarining yangilanishi, o'qituvchilar faoliyatining qayta talqini, baholash tizimidagi o'zgarishlar va metodik yondashuvlarning transformatsiyasi rekonseptual jarayonning asosiy jihatlari sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi Finlyandiya, Singapur va AQSH tajribalari bilan solishtirilib, milliy xususiyatlar asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: rekonseptualizatsiya, ta'lim tizimi, o'quv dasturi, innovatsion metodika, baholash, xalqaro tajriba.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimlari dinamik ravishda rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashishi, yangilanishi va innovatsion yondashuvlar asosida shakllanishi zarur. Bunday o'zgarishlar ta'lim konsepsiyalarini qayta ko'rib chiqish, ularni yangicha anglash va qayta asoslashni taqozo etadi. Ushbu jarayon ilmiy adabiyotlarda rekonseptualizatsiya deb yuritiladi. Rekonseptualizatsiya – mavjud nazariy, metodologik yoki amaliy tushunchalarning yangi kontekstda qayta talqin qilinishi, ularning mohiyatini yangilash jarayonidir. Ta'lim sohasida bu jarayon tizimli va maqsadli islohotlarning, innovatsion pedagogik yondashuvlarning, o'quv dasturlari va metodikalarining qayta ko'rib chiqilishida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ta'lim islohotlari ta'lim tizimining tubdan yangilanishini, ya'ni konseptual asoslarning qayta qurilishini talab etmoqda. Jumladan, 2017-yil 29-dekabrda "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" da ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish asosiy yo'nalishlardan biri etib belgilangan [1]. Ushbu hujjat mamlakatda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini tubdan yangilashga zamin yaratdi.

Shuningdek, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Prezident farmoni – "Ta'lim sifatini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" – o'qituvchilar salohiyatini oshirish, yangi o'quv dasturlari va metodikalari joriy etish, xalqaro standartlar asosida o'quv rejaları ishlab chiqish masalalari qayd etilgan [2]. Yana bir muhim hujjat – 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-sonli qaror – "2021–2023-yillarda umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi" asosida, ta'limda kompetensiyaviy yondashuv, STEAM ta'limi, elektron resurslar bilan boyitilgan interaktiv o'qitish uslublari keng joriy etilmoqda [3]. Bu o'zgarishlar rekonseptualizatsiyaning amaliy ko'rinishlaridan biridir.

Shunday qilib, yuqoridagi hujjatlar rekonseptualizatsiya jarayonining huquqiy-meyoriy poydevorini yaratib, ta'limni mazmun va shakl jihatidan tubdan yangilashni rag'batlantirmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda rekonseptualizatsiya tushunchasining nazariy-metodologik asoslari hamda uning O'zbekiston ta'lim tizimidagi amaliy ifodalanish shakllari o'rganildi. Tadqiqot nazariy tahlil asosida olib borildi, ya'ni mavjud adabiyotlar, davlat hujjatlari, ta'lim konsepsiyalari va xalqaro tajribalarga tayangan holda analitik yondashuv qo'llandi.

Birinchi navbatda, rekonseptualizatsiya tushunchasi atrofida ilmiy-nazariy qarashlar, jumladan, John Dewey tomonidan ilgari surilgan "tajriba orqali o'rganish" g'oyasi rekonseptualizatsiyaning pedagogik negizlaridan biri sifatida baholandi [10]. Michael Apple ta'limni rekonseptualizatsiya qilish orqali kuch va ijtimoiy tengsizlik munosabatlarini o'zgartirish mumkinligini asoslaydi [8]. Shuningdek, Basil Bernstein ta'limdagi til, ijtimoiy tuzilma va bilimlarni uzatish tizimlari rekonseptual o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan [9].

Tadqiqot davomida O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan ishlanmalar ham tahlil qilindi. Jumladan, Sh. S. Abdullayeva o'z tadqiqotida ta'lim strategiyalarining konseptual asoslarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini ta'kidlab [7], o'quv dasturlarining mintaqaviy moslashuvchanligi ustida to'xtaladi. U. R. Usmonova tomonidan kompetensiyaviy yondashuv asosidagi o'qituvchilar tayyorlov tizimi rekonseptualizatsiyaning amaliy ifodasi sifatida ko'riladi [12]. Shuningdek, N. A. Nuriddinov ta'limda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi rekonseptual yondashuvlarni zaruratga aylantirayotganini ko'rsatadi [11].

Tadqiqotda asosiy manba sifatida O'zbekiston ta'lim tizimida rekonseptual yondashuvlarni asoslovchi rasmiy hujjatlar – Prezident farmon va qarorlari, Xalq ta'limi va Oliy ta'lim vazirliklari qarorlari, 2021–2026-yillar uchun ta'limni rivojlantirish strategiyasi, shuningdek UNESCO [5], OECD [4], va World Bank Education Reports [6] kabi xalqaro tashkilotlarning ta'lim bo'yicha nashrlari tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — rekonseptualizatsiya tushunchasining nazariy asoslarini aniqlash, uning o'zbek ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish, mavjud strategiyalar va amaliyotlarni o'rganishdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi:

Ta'lim tizimidagi rekonseptualizatsiya qanday nazariy asoslarga ega?

O'zbekiston ta'lim tizimida rekonseptualizatsiya qanday yo'nalishlarda kechmoqda?

Bu jarayon o'quv dasturlari, metodikalar va o'qituvchilik faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

Tahliliy yondashuv sifatida kontent tahlili (mazmuniy tahlil) usuli qo'llanildi. Bu orqali rekonseptualizatsiyaning ifodalaydigan asosiy tendensiyalar, atamalar, strategiyalar ajratib ko'rsatildi. Shu bilan birga, diskursiv tahlil orqali rasmiy hujjatlarda rekonseptual yondashuv qanday ifodalangani va qanday o'zgarishlar bilan bog'langaniga e'tibor qaratildi. Tadqiqot shuningdek, xalqaro ta'lim tizimlaridagi rekonseptual yondashuvlar bilan O'zbekiston tajribasini taqqoslash orqali amaliy farqlar va imkoniyatlarni aniqlashga qaratildi. Bu maqsadda Finlyandiya, Singapur va AQShning ta'lim siyosati va o'qitish metodikalari tahlil qilindi. Xususan, Singapurda o'quv dasturlarining har 5 yilda qayta konseptualizatsiya qilinishi, Finlyandiya moslashuvchan o'quv dasturi (curriculum) orqali ta'lim samaradorligini oshirish va AQShda "21st century skills framework" asosida o'qituvchilarni tayyorlash tizimi alohida o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, rekonseptualizatsiya ta'lim tizimida quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali namoyon bo'layotgani aniqlandi:

Ta'lim mazmunining yangilanishi.

Rasmiy davlat hujjatlarida (xususan, PQ-4884-sonli qaror, PF-5847-sonli farmon) o'quv dasturlarining zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirilishi, ularning kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta shakllantirilishi rekonseptualizatsiyaning amaliy ifodasidir. O'quv rejalari endi faqat bilimga asoslanmay, balki ko'nikma va qadriyatlarini ham o'z ichiga olmoqda.

O'qituvchilar rolini qayta talqin qilish.

Rekonseptualizatsiya jarayonida o'qituvchi faqat bilim uzatuvchisi emas, balki fasilitator, yo'lbo'shchi va mustaqil fikrlashni rag'batlantiruvchi shaxs sifatida qaralmoqda. Bu esa o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Masalan, 2023-yildan boshlab pedagogika oliygohlarida "Soft Skills", "Digital Pedagogy" kabi fanlarning joriy etilishi bunga misoldir.

Ta'lim metodikalarining transformatsiyasi.

An'anaviy leksiya, nazorat ishlari o'rni loyihaviy faoliyat, muammo asosida o'qitish (PBL), STEAM yondashuvi, interfaol mashg'ulotlar egallamoqda. Bu holat, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinov tariqasida joriy etilgan yangi dars formatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Baholash tizimining rekonseptualizatsiyasi.

Yagona test va ball tizimi o'rni formatif va summativ baholash, portfoliolar, refleksiya asosida rivojlantirilgan baholash tizimlari joriy etilmoqda. Bu orqali o'quvchilarning individual o'sishi, ijodkorligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari aniqlanmoqda.

Hududiy va individual moslashuvchanlik.

Rekonseptualizatsiya ta'limni standartlashtirish emas, balki hududiy ehtiyojlarga, o'quvchilarning o'ziga xosligiga moslashtirishni nazarda tutadi. Jumladan, chekka hududlardagi maktablarga moslashtirilgan kurikulumlar, milliy qadriyatlarga asoslangan darsliklar ishlab chiqilmoqda.

Xalqaro integratsiya. OECD, UNESCO va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda xalqaro standartlar (masalan, CEFR, PISA, TIMSS) ta'lim tizimiga integratsiya qilinmoqda. Bu rekonseptualizatsiyaning xalqaro kontekstda mustahkamlab beradi.

Tadqiqot natijalari rekonseptualizatsiya jarayoni O'zbekiston ta'lim tizimida faol kechayotganini ko'rsatdi. Bu jarayon nafaqat ta'lim mazmunini, balki o'qituvchilik faoliyatini, baholash uslublarini va ta'lim siyosatini ham qayta shakllantirmoqda. Biroq ushbu o'zgarishlar bir xil sur'atda va sifatda amalga oshmayotgani sababli, bir qancha muhim masalalar va muammolarni tahlil qilish lozim.

Rekonseptualizatsiya ta'limni yagona, qotib qolgan tizimdan moslashuvchan va ochiq tizimga aylantirish imkonini beradi. U o'quvchilarning va o'qituvchilarning individual salohiyatini ro'yobga chiqaradi, innovatsion va interfaol metodlarni tatbiq etishga zamin yaratadi. Xususan, yangi o'quv dasturlarining kompetensiyaviy asosda ishlab chiqilishi, o'quvchilarning amaliy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, rekonseptualizatsiya jarayonida bir qator muammolar ham mavjud. Eng avvalo, hududlar o'rtasida pedagogik resurslar va malakali kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi farqlanadi. Qolaversa, ayrim o'qituvchilarning yangicha metodik yondashuvlarga tayyor emasligi, ularning an'anaviy uslublarga tayanishga moyilligi rekonseptual yondashuvni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, tizimda monitoring va refleksiya mexanizmlarining zaifligi natijasida yangi yondashuvlar samaradorligi yetarlicha baholanmay qolmoqda.

Xalqaro tajriba rekonseptualizatsiyaning turli shakllarini ochib beradi. Finlyandiya ta'lim tizimida har besh yilda kurikulumlarning yangilanib borishi, o'qituvchilarga erkinlik va ishonch berilishi ta'lim sifati oshishining asosiy omili sifatida e'tirof etiladi. Singapurda esa "teach less, learn more" tamoyili orqali o'qitishdan ko'ra o'rganishga e'tibor beriladi. AQShda "21st century skills" konsepsiyasi asosida ta'lim metodikasi rekonseptualizatsiya qilinmoqda. O'zbekiston bu tajribalardan o'zining milliy madaniyatiga mos keladigan uslublarni tanlab, bosqichma-bosqich joriy etmoqda.

Rekonseptualizatsiya jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

o'qituvchilar uchun uzluksiz metodik ko'nikmalarni rivojlantiruvchi trening va master-klasslarni tashkil etish;
rekonseptual o'quv dasturlarini sinfga tatbiq etishda mahalliy ehtiyojlar va shart-sharoitlarni hisobga olish;
monitoring va refleksiya mexanizmlarini kuchaytirish, yangi metodlarning samaradorligini baholash tizimini yaratish;
ta'lim siyosatini ishlab chiqishda o'qituvchilarni faol ishtirok ettirish;

xalqaro tajribalarni lokal kontekstda integratsiyalash orqali madaniy va metodik muvozanatni ta'minlash.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot davomida rekonseptualizatsiya tushunchasining ta'lim tizimidagi nazariy va amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, rekonseptualizatsiya — bu oddiy modernizatsiya emas, balki ta'limni tubdan yangilashga yo'naltirilgan tizimli o'zgarishlar majmuidir. Bu jarayon ta'lim mazmuni, metodikasi, baholash tizimi va o'qituvchi-tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga olib keladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar rekonseptual yondashuvlarning mavjudligini va ularning amalda bosqichma-bosqich joriy etilayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, Prezident farmon va qarorlari, ta'limni rivojlantirish strategiyalari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilayotgan tashabbuslar

rekonseptualizatsiya uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shunga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

O'qituvchilarning rekonseptual fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish O'qituvchilar uchun zamonaviy metodologiyalar, reflektiv yondashuv va tanqidiy tahlil asosida uzluksiz treninglar tashkil etilishi zarur.

Mahalliy kontekstga mos kurikulumlar ishlab chiqish Rekonseptual yondashuvlar faqat xalqaro standartlarga asoslanib qolmasligi, balki mintaqaviy ijtimoiy, madaniy ehtiyojlarga moslashtirilgan bo'lishi lozim.

Ta'lim muassasalarida eksperiment platformalari tashkil etish Yangi metodika va dasturlarni tajriba tariqasida sinab ko'rish uchun maktab va universitetlarda innovatsion laboratoriyalar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Monitoring va tahlil tizimini kuchaytirish Rekonseptual yondashuvlarning samaradorligini aniqlash va ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish uchun baholash va monitoring tizimi joriy etilishi lozim.

Xalqaro tajribalardan tanlab foydalanish Finlyandiya, Singapur va AQSH tajribasidan O'zbekiston sharoitiga mos keladigan elementlarni ijtimoiy-madaniy kontekstga moslashtirib joriy etish.

Rekonseptualizatsiya bu – ta'limda yangicha tafakkur, kelajakni barpo etuvchi asosiy kuch. U nafaqat tizimni, balki ta'lim orqali jamiyatni ham o'zgartirish salohiyatiga ega.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-4947-sonli "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" <https://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-5847-sonli "Ta'lim sifatini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ-4884-sonli "2021–2023-yillarda umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" <https://lex.uz>.
4. OECD. The Future of Education and Skills 2030: Conceptual learning framework. 2020, <https://www.oecd.org>.
5. UNESCO. Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO Publishing. 2021, <https://unesdoc.unesco.org>.
6. World Bank. Education Strategy 2025: Learning for All. Washington, DC: The World Bank. 2022, <https://www.worldbank.org>
7. Abdullayeva, Sh. S. Ta'lim strategiyalarining rekonseptual yondashuvlar asosidagi rivojlanish yo'nalishlari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2020, (4), 22–27.
8. Apple, M. W. Education and Power (2nd ed.). New York: Routledge, 1995.
9. Bernstein, B. Pedagogy, Symbolic Control and Identity (Revised ed.). Rowman & Littlefield, 2000.
10. Dewey, J. The Child and the Curriculum. University of Chicago Press, 1902.
11. Nuriddinov, N. A. Zamonaviy texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishning rekonseptual yondashuvlari. O'zbek tilida ta'lim: Muammo va yechimlar, 2022, (2), 17–23.
12. Usmonova, U. R. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida rekonseptual islohotlarning o'rni. O'zbekiston pedagogik innovatsiyalar jurnali, 2021, (1), 45–49.